

9-SINF TARBIYA. ChSB - 1. Original variant

Sana: _____ **Sinf** _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Alisher Navoiyning fikricha bu dunyoda abadiy qolmoq mumkin emas, biroq nima qoldirmoq katta saodat hisoblanadi? (B-2 ball)

A) yaxshi nom B) yaxshi asar C) boylik D) iste'dod

2. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi ilm nomi to'g'ri berilgan javobni toping. (B-2 ball)

A) Boylik B) Go'zallik C) Dunyoqarash D) Axloq

3. Quyidagilardan qaysi biri insonning jismoniy ehtiyojlariga kiradi? (B-2 ball)

A) Mehr, samimiy tuyg'ular B) Go'zallik, orastalik, tartib

C) Toza havo, suv, ozuqa D) Hurmat, e'tibor, obro'

4. Fuqarolarning xalqaro ahamiyatga ega masalalar bilan bog'liq faol harakatlari faol fuqarolikning qaysi turiga kiradi? (B-2 ball)

A) Mahalliy darajadagi faollik B) Xalqaro darajadagi faollik

C) Hududiy darajadagi faollik D) Respublika darajasidagi faollik

5. Vaqtni to'g'ri taqsimlashga oid to'g'ri qoidalarni aniqlang. (Q-2,8 ball)

1) Tongni jismoniy mashqlar bilan boshlash

2) Maqsadni to'g'ri belgilash va rejalashtirish

3) Zararli odatlarni faqat bo'sh vaqtda bajarish

4) Muhim ishlarni kuning yakunida bajarish

5) Foydali odatlarni rivojlantirish

A) 2, 4, 5 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4

6. Dilshod birinchi marta yangi elektr choynak sotib oldi. Uni ishlatishdan oldin qadoqdagi yo'riqnomani o'qib chiqdi. Yo'riqnomada choynakdan qanday foydalanish kerakligi bosqichma-bosqich ko'rsatilgan. Dilshod quyidagi amallarni qaysi ketma-ketlikda bajarishi to'g'ri algoritmnini tashkil etadi? (Q-2,8ball)

1) choynakni tokka ulash

2) choynakka kerakli miqdorda suv quyish

3) choynak tugmasini bosib yoqish

4) choynakni ochish

5) suv qaynashini kutish

A) 4, 2, 1, 3, 5 B) 2, 4, 1, 3, 5 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 3, 2, 1, 4, 5

7. Dilshod yangi uy jihozlarini joylashtirmoqchi bo'ldi. Xonani o'lchab ko'rmasdan, mebellarning qayerga qanday sig'ishini boshida tasavvur qilib chiqdi. Shu asosda u mebellarni to'g'ri joylashtira oldi va xonada yetarli bo'sh joy qoldi. Dilshodning bu vazifani aniq bajarishida nima yordam berdi? (Q-2,8ball)

A) Jihozlarning narxini yaxshi bilishi

B) Tasavvuridan foydalanib joylashuvni oldindan ko'ra olishi

- C) Ko'p uy bezaklarini ko'rgani foyda berdi
D) Eski uyning joylashuvini yod olgani uchun

8. Aziz maktabning ilmiy loyihalar tanlovida ishtirok etmoqda. U o'zining loyiha g'oyasini boshqalardan farqli, noodatiy usulda amalga oshirishni xohlaydi. U yangi g'oyalarni o'ylashda va mavjud materiallardan ilg'or yechimlar yaratishda ijodiy yondashadi. Azizning harakatlari to'g'ri ifodalangan javobni aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) U hamma qilgan ishni takrorlaydi.
B) U yangi va ijodiy g'oyalarni yaratadi.
C) U faqat ustoz ko'rsatmasiga amal qiladi.
D) U boshqa odamlarning ishini nusxa ko'chiradi.

9. Quyidagi vaziyatlarni ularga xos ko'nikmalar bilan moslashtiring. (Q-2,8ball)

1. Tanqidiy fikrlash bor:	a) Madina biror yangilik eshitganida darrov ishonmaydi, avval manbalarni solishtirib, faktlarni tekshirib ko'radi;
2. Tanqidiy fikrlash yo'q:	b) Azizbek har qanday ma'lumotni avval sinchiklab tekshirib ko'rishga odatlangan; c) Bahodir ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlarining barchasi to'g'ri deb hisoblaydi.

- A) 1-a, b, 2-c B) 1-c, 2-a, b C) 1-a, c, 2-b D) 1-b, c, 2-a

10. Bola bog'da sayr qilib yurib itni o'zi tomoniga kelayotganini ko'rib qo'rib ketib ota-onasiga yaqinlashadi. Ushbu vaziyatda bola nimaga ehtiyoj sezdi? (Q-2,8 ball)

- A) o'zgalar mehriga B) ota mehriga C) hayvonlarga D) xavfsizlikka

11. Sardor kichik shaharda yashovchi odamlar uchun yangi mobil ilova yaratdi. U ilovaning funksiyalarini aniqladi, dizaynini ishlab chiqdi va dasturni ishga tushirdi. Sardorning harakatlari quyidagi qaysi atamaga to'liq mos keladi? (Q-2,8 ball)

- A) Nazariy bilim B) Innovatsiya C) Hissiyot D) Jismoniy faollik

12. Quyidagilardan salbiy hissiyotlarni aniqlang (Q-2,8 ball)

- 1) Ilhomlanish 2) Qayg'u 3) Qiziquvchanlik 4) Ajablanish
5) Hasad 6) G'azab

- A) 2, 5, 6 B) 2, 3, 6 C) 4, 5, 6 D) 1, 4, 3

13. Navoiy "Xamsa" asarida shunday qurilma haqida yozganki, unda shakl paydo bo'lib, almashib turadi. Farhod uzoq Arman o'lkasidagi malika – Shirinni shunda ko'radi. O'ylang, bu yerda keyinchalik XX asrda yaratilgan qaysi qurilma haqida gap ketmoqda? (Q-2,8 ball)

- A) Kompyuter B) Muzlatkich C) Radio D) Televizor

14. Muvaffaqiyatli tadbirkorlar ko'pincha "omadimiz siri — boshqalar ko'rmagan imkoniyatni ko'ra bilish" deya ta'kidlashadi. Bu maslahatni hayotda qo'llash uchun eng to'g'ri yo'l berilgan javobni toping. (Q-2,8 ball)

- A) Barcha qilayotgandek aynan o'sha ishni boshlash
B) Faqat daromadi ko'p bo'lgan ishni tanlash va boshqasiga chalg'imaslik

- C) Odamlar e'tibor bermayotgan, lekin ehtiyoj yuqori bo'lgan imkoniyatni topish
- D) Ko'p o'ylab o'tirmasdan tasodifiy ish boshlab yuborish

15. Nilufarning ishida kutilmagan muammo chiqdi va hamkasbi unga baland ovozda gapira boshladi. Ushbu vaziyatda Nilufar quyidagi qaysi harakatni amalga oshirishi eng to'g'ri qaror hisoblanadi? (M-4 ball)

- A) U ham xuddi hamkasbidek ovozini baland ko'tarib javob qaytarishi
- B) Nega shunday bo'layotganini tushunishga harakat qilishi
- C) Indamay ketib, bor alamini yaqinlaridan olishi
- D) Vahimaga tushib, hamkasbiga keskin javob qaytarishi